



maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

maktabgacha
va maktab ta'limi
tasarrufidagi
ta'lim maktabi
xorijiy til va madaniy birlashma

HUQUQATLARI

2020-2027 – o'quv yili uchun)



“O‘qituvchi va
murabbiylar
Yangi O‘zbekistonni
barpo etadigan
eng katta kuchdir.”

S. Mirziyoyev



XORJIY TILLAR



Xorijiy tillar metodbirlashmasi hujjati quyidagilardan iborat:

- ⇒ O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 5-yanvardagi 8-sonli buyrug‘i
- ⇒ Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilariga uzluksiz
- ⇒ metodik xizmat ko‘rsatish tartibi
- ⇒ O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi Umumiy o‘rta ta’lim maktabining Metodbirlashmalari to‘g‘risidagi nizomi
- ⇒ O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risidagi buyrug‘i
- ⇒ Yillik ish reja
- ⇒ Metodbirlashmasi a’zolari haqida ma’lumot
- ⇒ Metodbirlashmasi a’zolarining ish taqsimoti
- ⇒ Metodbirlashma a’zolarining tomonidan o‘quv yili davomida o‘tiladigan ochiq darslar jadvali
- ⇒ Dars jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar ro‘yxati
- ⇒ Yig‘ilish bayonnomasi
- ⇒ Yillik hisobot

Xorijiy tillar metodbirlashma rahbari o'quv yili davomida quyidagilarni amalga oshiradi:

- Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- kasbiy seminar-treninglar, mahorat va ochiq darslar tashkil etish;
- manzilli metodik xizmat ko'rsatish ishlarida ("Metodik xizmat ko'rsatish") ishtirok etish;
- "Ustoz-shogird" an'anasini tizimli tashkil qilish;
- ilg'or ish tajribalarini maktab, tuman (shahar) metodik markazlarida ommalashtirishga tavsiya qilish;
- fan yo'nalishlari bo'yicha tuman (shahar) metodik markazlarida miqyosidagi darslik va metodik qo'llanma yozish, metodik markazlarida ishtirok etadi va unga o'qituvchilarni jalb qilish;
- metodbirlashmalararo tajriba almashish, metodik qo'llanma yozish;
- o'qituvchilarining darslarini kuzatish hamda zaruriy tavsiyalar berib borish;
- fanni o'zlashtirishga qiyinalayotgan o'qituvchilar uchun darsdan tashqari mashg'ulotlar tashkil etish;
- fan to'garaklarini tashkil etish;
- mezonlarga asoslangan baholashni amaliyotga joriy etilishida ishtirok etish;
- o'quvchilar o'rtasida fan yo'nalishlari doirasida ijodiy, intellektual tanlov, o'yin va festival tashkil etish;
- o'qituvchilar o'rtasida metodik tanlov va ijodiy dekadalar tashkil etish;
- maktab rahbarlarini ilg'or o'qituvchilarni rag'batlantirish uchun taklif qilish;
- ta'lim maznini yan bog'liq materiallar va normativ-huquqiy hujjatlar yordamida tushuntirish

Metodbirlashmaning maqsadi va asosiy vazifalari

Metodbirlashmaning maqsadi o'quv tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, fan o'qituvchilariga metodik yordamni tashkil etish, tegishli o'quv fanlarni o'qitish uslublarini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirishga ko'maklashadi.

Metodbirlashmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi;
- kasbiy seminar-treninglar, konferensiya, mahorat va ochiq darslari tashkil etadi;
- "Metodik-tur"larda faol ishtirok etadi;
- "Ustoz-shogird" an'anasini tizimli tashkil qiladi;
- ilg'or ish tajribalarini maktab, tuman (shahar) miqyosida ommalashtirishga tavsiya qiladi;
- fan yo'nalishlari bo'yicha tuman (shahar), viloyat va respublika miqyosidagi "Metodik yarmarka"larda ishtirok etadi, o'tkazadi va unga o'qituvchilarni jalb qiladi;
- metodbirlashmalararo tajriba almashishni yo'lga qo'yadi;
- o'qituvchilarning darslarini kuzatish hamda metodbirlashmada zaruriy tavsiyalar berib borilishini tashkil etadi;
- fanni o'zlashtirishga qiynalayotgan o'quvchilar uchun darsdan tashqari mashg'ulotlar tashkil etadi;
- fan to'garaklarini tashkil etadi;
- mezonlarga asoslangan baholashni amaliyotga joriy etilishida ko'maklashadi;
- o'quvchilar o'rtasida ularning qiziqishlari doirasida ijodiy, intellektual tanlov, o'yin va festivallar tashkil etadi;
- o'qituvchilar o'rtasida kasbiy, metodik tanlov va ijodiy dekadalar tashkil etadi;
- umumta'lim maktabi rahbariyatiga o'quv, ma'naviy-ma'rifiy hamda tajribasnov ishlarida faol ishtirok etgan pedagog xodimlarni moddiy rag'batlantirish to'g'risida taklif kiritadi.

Metodbirlashma rahbari va a'zolarining majburiyatlari

Metodbirlashma rahbarining majburiyatlari:

- Metodbirlashmaning ish rejasini tuzish va uning bajarilishini nazorat qilish;
- yosh o'qituvchilarga uslubiy yordam ko'rsatish;
- tegishli fanlarni o'qitish sifatiga e'tibor berish, Metodbirlashma a'zolarining yuzasidan pedagogik kengashga hisobot berish;
- taqvim-mavzu rejalarning o'qituvchilarga yetkazilishini nazorat qilish;
- ochiq dars hamda mahorat darslarini tashkillashtirish.

Metodbirlashma har bir a'zosining majburiyatlari:

- har bir o'qituvchi kamida bitta Metodbirlashma a'zosi bo'lishi;
- Metodbirlashma o'tkazadigan yig'ilishlarda faol qatnashishi;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun o'zini o'qitishni davom ettirib borish;
- pedagogning huquqiy-me'yoriy vazifalarini bilishi va unga amal qilishi;
- formativ va summativ baholashni o'z vaqtida to'g'ri tashkil etish;
- pedagogik faoliyatini o'z vaqtida bajarib borishi lozim.

Metodbirlashmaning huquqlari

Metodbirlashma quyidagi huquqlarga ega:

- umumta'lim maktabi rahbariyatiga fan to'garaklarini tashkil qilish yuzasidan takliflar kiritadi;
- umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining qobiliyati va ta'lim jarayonlarini tashkil etishda ishtirok etadi;
- Metodbirlashma a'zolarining malakasini oshirishga doir takliflar kiritadi;

Majburiyatlarini bajarmagan o'qituvchilarga amaldagi qonun va nazorat tuzatish tutilgan tartib bo'yicha chora ko'rish yoki faol, yaxshi ish ko'radiganlarni rag'batlantirish uchun maktab direktoriga taklif kiritadi

Metodbirlashma faoliyatlar

Metodbirlashma faoliyatiga muvofiq qayd bo'lishi lozim:

- Metodbirlashmaning ta'limiy ish yil ish rejasi;
- yig'ilish bayonnomasi;
- yillik hisoboti

Metodbirlashma huquqlarining yuritilishi va saqlanishiga Metodbirlashma rahbari javobgar bo'ladi.

- Metodbirlashma yillik ish rejasi, yig'ilish bayonnomasi, hisoboti uch yil muddat saqlanadi hamda hamda tegishli arxivga topshiriladi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
BUYRUG‘I**

**Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini
yanada takomillashtirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son qarori, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 22-sentabrdagi “Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 351-sonli buyrug‘i, shuningdek, maktab ta’limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy darsliklarni hamda baholash tartibini amaliyotga joriy etishda pedagog xodimlarga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatib borishni tizimli tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilariga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

umumiy o‘rta ta’lim maktabining Metodbirlashmalari to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining namunaviy nizomi 3-ilovaga muvofiq;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodistlarining malaka tavsiflari 4-ilovaga muvofiq;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining O‘quv-metodik kengashlari to‘g‘risidagi namunaviy nizom 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari ikki oy muddatda mazkur buyruqning 3- va 5-ilovalari bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi hamda O‘quv-metodik kengashlari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlasin.

3. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Pedagogik kengash faoliyati O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2016-yil 30-maydagi 6-mh-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim maktablarining pedagogik kengashi to'g'risidagi namunaviy nizomga muvofiq tashkil etilishi inobatga olinsin.

4. O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Respublika ta'lim markazi metodik xizmat ko'rsatish ishlarini mazkur buyruqning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan tartib asosida tashkil etilishini qat'iy nazoratga olsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Tashkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalarida Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlariga:

ikkki oy muddatda umumta'lim maktablarida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish maqsadida tuman (shahar)larda jamoatchilik asosida "Mentorlar guruhi" tashkil etib;

samarali faoliyat olib borgan mentorlarni tarmoq mukofotlari bilan taqdirlashga tavsiya etish;

metodik xizmat ko'rsatish tartibining mazmun-mohiyatini pedagoglar orasida keng targ'ib qilish vazifalari yuklatilsin.

6. Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarida ikkki oy muddatda Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi xodimlari umumta'lim muassasalarida qo'shimcha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga o'rnatilgan metodik xizmat ko'rsatish maqsadida Markazning ichki mehnat tartib-qoidalariga tegishli bo'lgan qoidalar qat'iy qo'llanilgan.

7. O'zbekiston Respublikasi Tashkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi 2022-yil 5-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 372-sonli buyruq bilan belgilovchi qoidalar qat'iy qo'llanilgan deb hisoblansin.

8. Axborot xizmatlari bo'limi umumta'lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tartibi yozma va a'loqalar bo'yicha vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng tarqatib borishni ta'minlasin.

9. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir
birinchi o'rinli



U.Sharifxodjayev

Toshkent sh.,
2024-yil " 5 "- yanvar,
8 - son

**Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga uzluksiz
metodik xizmat ko'rsatish
TARTIBI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv tarbiya jarayonini yanada yaxshilash, pedagog xodimlarning salohiyatini oshirish, o'qituvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan metodik xizmat ko'rsatish tizimini belgilaydi.

2. Ushbu tartib Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari, Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari, maktabgacha va maktab ta'limi umumiy o'rta ta'lim muassasalariga tatbiq etiladi.

2-bob. Uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tartibi

3. Umumta'lim muassasalariga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tizimi quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim maktablarining fan Metodbirovlari, maktabgacha va maktab ta'limi umumiy o'rta ta'lim maktablarining pedagogik kengashlari, viloyatlar, shahar va tuman (shahar)larda "Mentorlar guruhi" (jamoatlik asosida), Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalaridagi O'qituvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish shoxbalarini;

Respublika ta'lim markazi, Respublika ta'limi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi a'zolari tasarrufidagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy markazlari;

4. Uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tizimidagi kengash va birlashmalarning faoliyati tegishli nizom asosida amalga oshiriladi.

5. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fan metodbirlashma rahbarlari yo'nalishi bo'yicha ushbu tartibda quyidagilarni amalga oshiradi:

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

kasbiy seminarlar, mahorat va ochiq darslar tashkil etadi;

manzilli metodik xizmat ko'rsatish ishlarida ("Metodik tur") faol ishtirok etadi;

"Ustoz-shogird" an'anasini tizimli tashkil qiladi;

ilg'or ish tajribalarini maktab, tuman (shahar) miqyosida ommalashtirishga tavsiya qiladi;

fan yo'nalishlari bo'yicha tuman (shahar), viloyat va respublika miqyosidagi darslik va metodik qo'llanmalar yarmarkalarida ishtirok etadi va unga o'qituvchilarni jalb qiladi;

metodbirlashmalararo tajriba almashishni yo'lga qo'yadi;

o'qituvchilarining darslarini kuzatadi hamda ularga zaruriy tavsiyalar berib boradi;

fanni o'zlashtirishga qiynalayotgan o'quvchilar uchun darsdan tashqari mashg'ulotlar tashkil etadi;

fan to'garaklarini tashkil etadi;

mezonlarga asoslangan baholash tizimini amaliyotga joriy etilishida ishtirok etadi;

o'quvchilar o'rtasida ularning qiziqishlari doirasida ijodiy, intellektual tanlov o'yin va festivallar tashkil etadi;

o'qituvchilar o'rtasida kasbiy, metodik tanlov va ijodiy dekadalar tashkil etadi;

maktab rahbariyatiga faol, ilg'or o'qituvchilarni rag'batlantirish uchun kiritadi;

ta'lim mazmuni bilan bog'liq materiallar va normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyatini tushuntiradi.

6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv -tarbiya jarayoni sifatini oshirishda yaxshilash, pedagog xodimlarga o'z vaqtida metodik yordam ko'rsatishni maqsadida **har chorakda kamida bir marta** fan metodbirlashmalarining yig'ilishini o'tkaziladi.

7. Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish va metodik xizmat ko'rsatish bo'limidagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi xodimlari quyidagi hujjatlar bilan amalgam oshiradi:

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari huzuridagi metodik kengashlar faoliyatini olib boradi;

vazirlik tomonidan taqdim etilayotgan ta'lim mazmuni bilan bog'liq materiallar va normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyatini maktab jamoasiga yetkazadi;

o'quv rejalar hamda o'quv dasturlarini ommalashtirish, tajriba-sinovdan o'tkazish hamda amaliyotga joriy etishda pedagoglarni yordam ko'rsatadi;

yaratilgan darsliklar va metodik qo'llanmalar bo'yicha metodik qo'llanmalarni ekspertizadan o'tkazadi;

ilg'or o'qituvchilar ish tajribasini ommalashtirish ishlarini tashkil etishda Respublika ta'lim markazi bilan hamkorlik qiladi;

mezonlarga asoslangan baholash tizimini amaliyotga samarali joriy etish uchun umumiy o'rta ta'lim maktablariga metodik yordam ko'rsatadi;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida metodik yordam ko'rsatishni rivojlantirish, istiqbolli va dolzarb masalalarni bo'yicha Respublika ta'lim markaziga takliflar kiritadi;

malaka oshirishga kelgan o'qituvchilar uchun reja asosida "Metodist soati"ni o'tadi;

maktab ta'limi sohasini rivojlantirishga bag'ishlangan xalqaro, mintaqaviy uchrashuvlar, anjumanlar va seminarlarda ishtirok etadi;

tuman, shahar (viloyat)larda fan va yo'nalishlar bo'yicha mentorlarni aniqlaydi, ularning faoliyatini tashkillashtiradi;

ilg'or ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilarni jalb etgan holda viloyat, tuman (shahar) seminarlarini tashkil etadi;

ta'lim dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar, shuningdek, murakkab mavzular yuzasidan o'quvlarni tashkil etadi;

o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini (kreativ fikrlash, jamoada ishlash, AKT ko'nikmalari va mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, muammoni yechish va qaror qabul qilish, tadqiqotchilik ko'nikmalari, kommunikativ ko'nikmalari va rivojlantirishga oid mavzularda mahorat darslarini tashkil etadi;

"Loyihaga asoslangan ta'lim" bo'yicha o'quvlar tashkil etadi;

raqamli ta'lim resurslarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashadi;

ilmiy, metodik qo'llanmalar, o'quv-metodik majmualarning ochiq onlayn "yarmarka"larini tashkil etadi;

maktablarga manzilli va tizimli metodik yordam berishni "metodik markazlar"larni tashkil etadi;

"Metod birlashma"lar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

stajor-o'qituvchilar bilan reja asosida tizimli ishlaydi;

"Mahorat maydonchalari" faoliyatini samarali tashkil etishga metodik yordam ko'rsatadi;

umumta'lim maktabi o'qituvchilarining darslarini o'zaro kuzatib boradi, tahlil qiladi va tegishli tavsiyalarni beradi;

yangidan yaratilgan o'quv-metodik majmualar amaliyotga samarali tatbiq etish, pedagoglarga fanlar yo'nalishi bo'yicha kerakli yordam berish maqsadida Respublika ta'lim markazi, Ixtisoslashtirilgan muassasalari agentligi tasarrufidagi Pedagogik mahorat va xalqaro ta'limni rivojlantirish markazi, A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy o'qitish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti, ta'lim bo'yicha va maktab ta'limi boshqarmalaridagi o'quvchilarda zarur ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho'basi bilan hamkorlikda ishlaydi;

oliy ta'lim muassasalari bilan ta'limni rivojlantirishda hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishda ta'limni o'zlashtirish va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy metodik yordam ko'rsatish maqsadida o'quv-tarbiya jarayonini uslubiy ta'minlash maqsadida hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yadi.

8. Zaruriyatga ko'ra metodik xizmat ko'rsatish bo'limi huzurida O'quv metodik kengashlarini tashkil etadi;

9. Qoraqor tashkiloti Respublika Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalarining

o'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho'basini metodistlari quyidagi metodik xizmatlarni tashkil qilib boradi:

umumiy o'rta ta'lim maktablarining tayanch o'quv rejasi, o'quv dasturlarini amaliyotga joriy etilishini ta'minlaydi;

o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini (kreativ fikrlash, jamoada ishlash, AKT ko'nikmalari va mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, muammoni yechish va qaror qabul qilish, tadqiqotchilik ko'nikmalari, kommunikativ ko'nikmalari va h.k) rivojlantirishga oid mavzularda mahorat darslarini tashkil etadi;

o'qituvchilar o'rtasida o'zaro tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yish maqsadida Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy metodidagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi fan metodistlari bilan hamkorlikda yordamlar tashkil etadi;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida yuqori sinf o'quvchilarining o'qishga qiziqishini tanlovi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish uchun tanlov fanlarini tashkil etadi;

“Mentorlar guruhi” faoliyatini samarali tashkil etilishini ta'minlaydi;

umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi tajriba-sinov ishlarini tashkil etilishini muvofiqlashtirib boradi;

metodik xizmat yo'nalishi bo'yicha o'tkaziladigan ta'lim o'quvlari tashkil etadi;

umumta'lim maktablarida pedagoglar o'qitish usullari taqsimotini qonunchilikka muvofiq to'g'ri taqsimlanishi ta'minlash ishlarini doimiy ravishda olib boradi;

ta'lim tizimida metodik xizmatning sinf o'qituvchilari bo'lgan turli tadbirlar, ko'rik-tanlovlar o'tkazilishini muvofiqlashtiradi.

10. Ixtisoslashtirilgan ta'lim markazlari o'zining huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi xodimlari o'qituvchilarga quyidagi metodik xizmatlarni ko'rsatadi:

mezonlarga asoslangan metodik xizmatlarni amaliyotga samarali joriy qilishda metodik yordam ko'rsatadi;

baholash tizimini umumiy o'rta ta'lim muassasalariga joriy etish uchun o'quvlar tashkil etib boradi;

loyihaga asoslangan ta'limni umumiy o'rta ta'lim maktablariga joriy etilishida Respublika ta'limi bilan hamkorlikda metodik yordam ko'rsatib boradi;

o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini (kreativ fikrlash, jamoada ishlash, AKT ko'nikmalari va mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, muammoni yechish va qaror qabul qilish, tadqiqotchilik ko'nikmalari, kommunikativ ko'nikmalari va h.k) rivojlantirishga oid mavzularda mahorat darslarini tashkil etadi.

11. Ta'lim markazining metodistlari fan o'qituvchilariga quyidagi metodik xizmatlarni ko'rsatadi:

fan dasturlarini ishlab chiqadi va ulardagi yangi mavzularni o'qitish usullari yuzasidan yordam beradi;

fan yo'nalishi bo'yicha namunaviy taqvim-mavzu reja ishlab chiqadi;

Veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68, 91-397-77-37, 90-530-68-66 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

69 listdan iborat Xorijiy tillar metodbirlashma hujjatlarini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.


Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)

To'lov uchun: HUMO

9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi. To'liq holda olganingizdan so'ng: Faqat o'zingiz uchun foydalaning. Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham. Internet orqali veb-saytlarga joylamang. Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**

ONLINE KOMPYUTER XIZMARLARI

O'zbek va rus maktablar uchun

Buyutirma asosida

1-11-sinflar uchun barcha fanlardan **testlar**, **nazorat ishlar**, **to'garaklar**, **tezislar** va **yillik fan konspektlar**, **tadbir senariylari**, **ochiq dars ishlanma va slaydlar** (taqdimotlar), mikro darslar, talabalarning amaliyot hujjatlari, kurs ishi, loyha ishi, **ko'rgazma va tarqatmalar**, **faxriy yorliq**, **diplom**, **tashakkurnomalar** va boshqa hujjatlarni tayyorlab beramiz.

Tel:91669-34-74 Telegramdan: @talimxizmatlar izlab toping.

1–11 классов подготавливаем:

тесты по всем предметам

контрольные работы

кружковые занятия

тезисы

годовые конспекты по предметам

сценарии мероприятий

разработки открытых уроков

слайды и презентации

микроуроки

документы по практике студентов

курсовые работы

проектные работы

наглядные и раздаточные материалы

почётные грамоты

дипломы

благодарственные письма

другие документы

Телефон: 91 669-34-74

Ищите нас в Telegram: @talimxizmatlar